



O'ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY O'ZLIK VA QAHRAMON RUHIYATI

Qodirova Ma'rufat Abdullayevna,

*Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti assistenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
marifat45@gmail.com ORCID: 0009-0005-6484-280X*

Fayzullayeva Maftuna,

Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20711164>

Annotatsiya. Mazkur maqolada istiqloq davri o'zbek adabiyotida milliy o'zlik va qahramon obrazining shakllanishi tahlil qilinadi. XX asr o'zbek adabiyotidan farqli ravishda yangi bosqichda oddiy inson, uning ichki dunyosi, ma'naviyati va qarorlari markazga chiqadi. O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod asarlari misolida yangi davr qahramoni talqini va milliy qadriyatlar orqali vatanparvar ruh yoritiladi. Shuningdek, I. Sulton va S. Mirzayev tadqiqotlari asosida adabiyotning tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati xulosalanadi.

Kalit so'zlar: istiqloq davri adabiyoti, milliy o'zlik, qahramon obrazi, ma'naviyat, badiiy tafakkur, zamon kishisi, qoliplangan qahramon, mafkura, manaviy qadriyat, inson erki, erkin ijod, badiiy talqin, badiiy tafakkur.

Annotation. This article analyzes the formation of the national identity and the image of the hero in the Uzbek literature of the period of independence. Unlike the Uzbek literature of the 20th century, in the new stage, the ordinary person, his inner world, spirituality and decisions come to the center. The works of O'tkir Hashimov and Togay Murad illuminate the patriotic spirit through the interpretation of the hero of the new era and national values. Also, the educational and spiritual importance of literature is concluded based on the researches of I. Sultan and S. Mirzayev.

Keywords: literature of the independence period, national identity, hero's image, spirituality, artistic thinking, contemporary man, stereotyped hero, ideology, spiritual value, human will, free creativity, artistic interpretation, artistic thinking.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы формирования национальной идентичности и образа героя в узбекской литературе периода независимости. В отличие от узбекской литературы XX века, на новом этапе в центр художественного осмысления выдвигается обычный человек, его внутренний мир, духовность и жизненные решения. На примере произведений O'tkir Hoshimov и Tog'ay Murod раскрываются особенности интерпретации героя новой эпохи и патриотический дух, выраженный через национальные ценности. Кроме того, на основе исследований Ibrohim Sulton и S. Mirzayev обобщается воспитательное и духовно-нравственное значение литературы.

Ключевые слова: литература периода независимости, национальная идентичность, образ героя, духовность, художественное мышление, человек эпохи, шаблонный герой, идеология, духовные ценности, свобода личности, свободное творчество, художественная интерпретация, художественное мышление.

Kirish. XX asr insoniyat tarixida qiyinchiliklarga to'la bo'lishiga qaramay, insoniyatning ruhiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim bosqich bo'lgan. Shu davr natijasida O'zbekiston mustaqillikka erishdi va adabiyot sohasida yangi davr – istiqloq



davri adabiyoti shakllandi. Bu davr adabiyoti voqelikni haqqoniy ko'rsatish orqali kishilarni ezgulik ruhida, vatanparvar, xalqparvar, rostgo'y, adolatli, mehnatsevar, odobli qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyot tahlili va metodlar. Istiqlol davri adabiyoti avvalgi o'tgan asr davri adabiyotidan keskin farq qiladi. Chunki bu davrga kelib odamlarning dunyoni anglash, uni idrok qilishga yo'sini o'zgardi. Avvallari badiiy asarlarda, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatlarga ega kishilar qahramon qilib olingan bo'lsa, endilikda badiiy personajlar, oddiy insonlar orasidan olinadigan bo'ldi [1.5]. Bu davr adabiyotining asosiy qahramonlari odatda ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar va ziyolilardir. Shu bilan birga, yangi davr qahramonlari ichki dunyosi boy, ruhiy izlanishlarga ega, qaror va harakatlari bilan o'zligini ko'rsatadigan murakkab inson timsoli sifatida ochiladi. Bunday ijod namunasiga Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarini misol keltirsa bo'ladi. Bu roman milliy o'zlik va tarbiyaviy ruhni tarbiyalovchi muhim asarlardan biridir. Unda "dala" timsoli oddiy yer maydonini emas, balki ma'naviy qadriyat, tarixiy xotira va milliy g'urur ramzi sifatida vazifa bajargan. Romanning markazida sadoqat g'oyasi ustuvorlik qiladi. Qahramonning dalaga bo'lgan muhabbati, uning sabr-toqati va e'tiqodi yosh avlodni halollikka, mehnatsevarlikka, mas'uliyatli bo'lishga undaydi [2.10].

Bundan tashqari adabiyotning yangi bosqichida yangi turdagi qahramon – zamon kishisi obrazini yaratish yozuvchi, shoir va ularning asosiy vazifasi hisoblangan. Zotan, bu adabiyotda turli yillarda yaratilgan asosiy qahramonlar bu davrning farzandlari bo'lib, jamiyat hayotining turli davrlaridagi hayot va insoniy munosabatlarni aks ettirgan [1.6]. "Istiqlolimizning o'zi davr qahramonlarini yuzaga chiqaradi. Ular ishchilar o'rtasida ham, dehqonlar ichida ham, ziyolilar orasida ham serob. Yoshlarimiz ulardan ibrat olsin. Binobarin, ularning yorqin obrazlarini yaratish adabiyotimizning dolzarb vazifasidir" – deydi Ozod Sharafiddinov [3.195]. Qolaversa, avvallari shoir va yozuvchilar asarlarida qoliplangan qahramonlarni ishlatgan bo'lsa, endilikda qahramonlarni erkin, mustaqil fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas rivojlanadigan komil insonni yaratish vazifasini qo'yadi. Bu orqali eski davr mafkurasi, uning asoratlaridan xalos bo'lish mumkin bo'lgan. Buning sababi eski davr mafkurasi insonlar hayotini og'ir ahvolga solgan. Buning misolini Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi Otabek va Kumushning ayanchli taqdiridan ko'rsa bo'ladi. Zero, o'sha davrning tuzumi, urf-odati va ota-onalarining orzusi tufayli ikki sevishgan har qancha urinmasin baxtli bo'la olmadi [4.67].

Milliy istiqlool mafkurasi milliy o'zlikni va umumbashariy vazifani aniq anglatadigan nur. Milliy o'zlik deganda ona tiliga, ajdodlar xotirasiga, vatan tuyg'usiga hurmat va xalqning ma'naviy qadriyatlarini anglash tushuniladi. Bu orqali yillar, asrlar davomida urf-odatlarimizni, madaniyatimizni saqlab qolish mumkin.



Muhokama. Atoqli yozuvchi Ozod Sharafiddinov: “XX asrda bizda jahonning har qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, qissachilik, romannavislikda ham, she’riyatda ham, dramaturgiyada ham buning isbotini o‘nlab uchratishimiz mumkin”, – deb yozgan edi. Uning bunday ta’rifini Umarali Normatov quyidagi so‘zlari bilan tasdiqlaydi: “Hech qaysi soha XX asrda adabiyotchilik millat taqdiri, ijtimoiy adolat, inson erki, sha’ni himoyasi yo‘lida izchil, muntazam kurash olib borgan emas” [1.4].

Badiiy talqin orqali milliy o‘zlik turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotining buyuk so‘z san’atkori bo‘lib, asarlarida inson ruhiy olami, oddiy xalq hayoti va ma’naviy qadriyatlarni tasvirlaydi. Uning mashhur qissasi “Dunyoning ishlari”da onaning mehr-saxovati, sabr-qanoat, oilaviy qadriyatlar kabi timsollar orqali milliy o‘zlik va ma’naviy jihatlarni ochib beradi. Qahramon ona orqali xalqning qadriyatlari, mehr-oqibat va urf-odatlarini chiroyli aks ettiradi. Bu asar insonlarni onalarga nisbatan mehr uyg‘otishga chorlaydi. Onalarning farzandlariga qilgan yaxshiligi, sarflagan umri va sog‘ligini ko‘rsatib beradi. Bu jihat, ayniqsa, yoshlarni vijdonli, mas’uliyatli va halol inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Istiqlol davri adabiyoti milliy o‘zlikni, vatan tuyg‘usini badiiy shaklda aks ettiradi [1.4]. Qahramonlar murakkab, hayotiy va ichki dunyosi boy insonlar sifatida tasvirlanadi. Ularning fikrlari erkin, ma’naviyati keng, intiluvchan va erkin shaxs sifatida tasvirlanadi. Nafaqat qahramon, balki yozuvchilar ham erkin ijod qiladigan bo‘ldi. Bu adabiyotning tubdan rivojlanishi va taraqqiyotiga sabab bo‘ldi. Natijada adabiyotda mavzu va uslub rang-barangligi kuchaydi, yozuvchi shaxsiy dunyoqarashi va badiiy tafakkuri kengayishi sodir bo‘ldi. XX asr xalqimiz hayotiga avvalgi davrlarda bo‘lmagan yangi-yangi g‘oyalarni, o‘zgacha ijtimoiy maqomga ega inson tuyg‘ularini olib kirdi [1.415]. Endi qahramonlar voqelikni haqqoniy aks ettiradi, insonni ezgulik, adolat, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda istiqlool davrida milliy o‘zlik yuqori darajaga ko‘tariladi, qahramon va obrazlar ko‘lami kengayadi, mukammal holatga keladi. Shu bilan birga Istiqlol davri adabiyoti tamomila yangi davrni boshlab bergan. Vatan, yurt, erk masalalari ijod ko‘lami kengligi bilan o‘tgan asr adabiyotidan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 416 b.
2. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 363 b.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – 637 b.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2005. – 408 b.